

EKOLOGIK MUAMMOLAR

Buxoro viloyati Jondor tumani

6 - umumiy o'rta ta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Jo'rayeva Nigora Xolmurodovna

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi kunda insonlarni oldida yuzaga kelgan dunyodagi global ekologik muammolari va ularning kelib chiqish sabablari, shuningdek, bu muammolarni yechimi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *skaylob, Issiqxona samarasi, Gidrosfera, Ozonosfera, okean.*

Hozirgi kunda dunyoda sanoat va fan-texnika inqilobi davrida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgarib ketdi. Bu tezkor o'zgarishlar natijasida dunyoda ya'ni insoniyatning oldida bir-qancha ekologik muammolar yuzaga keldi. Bunday ekologik muammolarni global deyilishiga sabab, bu ekologik muammolar sayyoramizda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga va tirik organizmlarning yashash sharoitiga o'z ta'sirini ko'rsatishidir. Global ekologik muammolardan biri ozon qatlamining yemirilishidir. Ozon qatlami quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarni tutib qoluvchi yer yuzasining qalqoni hisoblanadi. Ma'lumki ultrabinafsha nurlar yer yuzasidagi tirik organizmlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Insonlarda nurlanish oqibatida teri kuyishi va teri raki kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Donli ekinlar hosildorligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Hozirgi vaqtda Freon gazlaridan keng foydalanish, aviatsiya gazlari hamda atom bombalarini portlatilishi natijasida atmosferaga ko'p miqdorda zararli moddalar va tutunlar chiqarilmoqda. Bu esa ozon qatlamini to'planishiga imkon bermayapti. Aviatsiya va raketa uchirilishi natijasida atmosferaga ko'p miqdorda alyuminiy oksidi chiqarilmoqda. Chiqarilgan alyuminiy oksidi oq kukun ko'rinishida bo'lib quyosh nurlarini yer yuzasiga tushushiga to'sqinlik qiladi va oqibatda quyosh nurlari qaytishi kuzatiladi. Raketalar atmosferani ifloslab qolmay ko'p miqdorda kislorod sarflaydi va

ozon qatlamiga ham ta'sir etadi. AQSHning "skaylob" stansiyasining orbitaga chiqargan Saturn-5 raketasi ionosferada kengligi 1800 km "tuynuk" hosil qilib, u 1,5 soatdan so'ng to'lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra bir vaqtning o'zida Saturn-5 ga o'xshash 125 ta raketa uchirilsa, yer yuzasini o'rab turgan ozon qatlamini yo'q qilib yuborishi, yer yuzasidagi barcha tirik organizmlar nobud bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Antarktida va Avstraliyaning quyi hududlaridagi atmosfera havosida ozon tuynugi hosil bo'lib kengayib bormoqda. Bu holatni oldini olish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. 1981-yil 81-mamlakat olimlari mutaxassis va davlat arboblari qabul qilgan "Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasi" va 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqarish mahsulotlarini kamaytirib borish tadbirlari belgilab berildi. Natijada so'ngi yillarda ozon tuynugining maydoni qisqarib bormoqda.

"Issiqxona samarasi". Keyingi yillarda atmosfera tarkibida karbonat angidrid gazlarining ortishi natijasida issiqxona samarasi vujudga keldi. Bunga sabab sanoat korxonalarida yoqilg'i mahsulotlari ayniqsa, toshko'mirdan keng ishlatilishi, transport vositalarida yoqilg'ilardan foydalanilishi, o'rmonlarning kesilishi, o'rmon yong'inlaridir. Bular issiqxona samarasini jadallashuviga olib keldi. Ahvol shu tariqa davom etsa XXI asrga kelib yer yuzasi harorati 1,5-4,5 gradusga ortishi mumkin. Buning oqibatida iqlimning o'zgarishi, ayniqsa cho'llashish jarayoni kuchayadi. Tabiat zonalari siljiydi, okean va dengizlar sathi ortadi. Muzliklar erishi va hajmi kamayishi kabi hodisalar ro'y beradi. Chuchuk suv yetishmasligi muammosi. Suvning biosferada roli juda katta. U tiriklik va hayot manbai. Gidrosferada 1,5 mlrd kub kmdan ko'proq suv mavjud bo'lsada, shuning atigi 3% chuchuk suvlaridir. Chuchuk suv zahiralarning asosiy qismi qutbiy muzliklarda to'plangan. Jamiyat rivojlangani sari chuchuk suvga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Gidrosferaning jami hajmining 3%ini tashkil etgan chuchuk suv iste'molida aholi, sanoat, qishloq xo'jaligi birlamchi rol o'ynaydi. Chuchuk suv yer yuzasi bo'ylab notekis taqsimlangan. Masalan Afrika aholisining 10%i muntazam chuchuk suv bilan ta'minlangan bo'lsa, Yevropada bu ko'rsatgich 95% ni tashkil etadi. Ayniqsa tropik Afrika mamlakatlarida toza ichimlik suv muammosi jiddiy muammo bo'lib turibdi.

Ba'zi sanoat, maishiy komunal xo'jalik va qishloq xo'jaligida foydalanilgan suvlar qayta ishlanmasdan daryolarga oqizilmoqda. Buning oqibatida daryo suvi ifloslaninishi bilan birgalikda turli yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Reyn, Dunay, Sena, Tibr, Missisipi, Volga, Dnepr, Don, Dnestr, Nil, Ganga va boshqa daryolar juda ifloslanib ketgan daryolar hisoblanadi. Dunyo okeani ham ifloslanib bormoqda. Okean suvlari ayniqsa neft mahsulotlari bilan ifloslanmoqda. Dunyo okeanining 1/3 qismidan ortig'i neft pardasi bilan qoplangan. Neft pardasi bug'lanishni kamaytiradi, planktonlar rivojlanishi, okean bilan atmosfera o'zaro aloqalarini chegaralaydi. Neft bilan Atlantika okeani eng ko'p ifloslangan.

Yuqorida keltirilgan ekologik muammolarning bari antropogen ya'ni inson omili bilan bog'liq. Xo'sh bir nima qilishimiz kerak? Qanday choralar ko'rishimiz zarur? Albatta inson tabiatni ifloslash bilan chegaralanib qolayotganligi yo'q. Uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ham amalga oshirmoqda. Ko'pgina davlatlarda ekologik siyosat olib borilmoqda. Bizning davlatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam yaxlit qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar". 55-moddasida – "Yer, yer osti boyliklari, suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur, ular davlat muhofazasidadir" deya ta'kidlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Sattorov, Q.Allanov, B.Abdumo'minov Global iqlim o'zgarishi, uning oqibatlari va unga moslashish. Termiz 2019.
2. Шухратджон Б. и Факридин М. (2023). ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ.
3. Фахриддин М. и Сайфуллаевич К.К. (2023). ВЛИЯНИЕ ДЛИНЫ ПРИВОДА ПАРАЛЛЕЛОГРАММНОГО МЕХАНИЗМА УСТРОЙСТВА ИЗМЕРЕНИЯ РАБОЧЕЙ ГЛУБИНЫ ПОЧВОБРАБАТЫВАЮЩИХ МАШИН НА ТОЧНОСТЬ ИЗМЕРЕНИЯ РАБОЧЕЙ ГЛУБИНЫ.
4. Мухамедов, Д., & Махмудов, Ф. (2023). ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ КАТКОВ АГРЕГАТА ДЛЯ ПОСЕВА ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В МЕЖДУРЯДИЯ ХЛОПЧАТНИКА. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 478-483.

5. Yuldashev, S. H., & Hakimov, S. (2022). ABOUT VIBRATION ARISING FROM RAILWAY TRANSPORT. *Science and Innovation*, 1(5), 376-379.
6. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
7. Ахмедов, И., Ризаев, Б., Хамидов, А., Холмирзаев, С., Умаров, И., & Хакимов, С. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Journal of new century innovations*, 19(6), 60-70.
8. Rasuljon o'g'li, K. S., & Muhammadjanovna, K. F. (2023). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING STEEL REINFORCEMENTS AND COMPOSITE REINFORCEMENTS IN BUILDING STRUCTURES. *AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI/ JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH*, 2(6), 1-5.
9. Quziboev, S., Hakimov, S., & Xamidov, A. (2023). GIPSLI BOG'LOVCHINING FIZIK-MEXANIK HUSUSIYATLARIGA KOMPLEKS KIMYOVIY QO'SHIMCHALARNI TASIRI. *GOLDEN BRAIN*, 1(1), 68-70.
10. Хакимов, С., Абдуназаров, А., & Шаропов, Б. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАР ЗИЛЗИЛАБАРДОШЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Journal of Advanced Research and Stability*, 2(9), 215-218.
11. Шаропов, Б. Х. Ў., Ўғли, М. Ф. Р., & Акбаралиев, Х. Х. Ў. (2022). Куёш энергиясидан фойдаланиб биноларни энергия самарадорлигини ошириш тадбирлари. *Механика и технология*, 2(7), 186-191.
12. O'g'li, S. B. X., & O'g'li, M. F. R. (2022). Quyosh energiyasidan foydalanib turar joy binolari qurishning istiqboli tomonlari. *Механика и технология*, (Спецвыпуск 1), 145-149.
13. Хакимов, С. (2022). ТОННЕЛЛАР ҚАЗИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИ КАМЧИЛИКЛАРИ. *Journal of Advanced Research and Stability*, 2(9), 219-222.
14. Bahodir, R., Islombek, A., Adhamjon, H., Sattor, K., Isroiljon, U., & Sodiqjon, H. (2022). INFLUENCE OF AGGRESSIVE MEDIA ON THE DURABILITY OF LIGHTWEIGHT CONCRETE. *Journal of new century innovations*, 19(6), 318-327.
15. Ахмедов, И., Ризаев, Б., Хамидов, А., Холмирзаев, С., Умаров, И., & Хакимов, С. (2022). АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СУХОГО ЖАРКОГО КЛИМАТА НА РАБОТУ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. *Journal of new century innovations*, 19(6), 39-48.
16. Хамидов, А., Ахмедов, И., Холмирзаев, С., Ризаев, Б., Умаров, И., & Хакимов, С. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ БЕТОНОВ НА ОСНОВЕ НЕГОРЮЧИХ ЩЕЛОЧНЫХ ВЯЖУЩИХ КОНСТРУКЦИЯХ. *Journal of new century innovations*, 19(6), 123-134.
17. Bakhodir, R., Islombek, A., Adhamjon, K., Sattor, K., Isroiljon, U., & Sodikjon, K. (2022). CALCULATION OF DEFORMATION CHANGES OF CENTRALLY COMPRESSED REINFORCED CONCRETE COLUMNS IN DRY HOT CLIMATIC CONDITIONS. *Journal of new century innovations*, 19(6), 162-170.
18. Хакимов, С. (2023). ПОВТОРНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДЫ В АВТОМОЙКАХ ПУТИ МАРШРУТИЗАЦИИ. *ТЕСНика*, (1 (10)), 1-5.